

**JADID ADABIYOTIDA VATANPARVARLIK VA
MILLATPARVARLIK G'OYALARI**

*TerDPI O'zbek tili va adabiyoti
kafedrası mudiri, dotsent*

Lobar Mardonova,

*O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi
3-kurs talabasi* **Sevinch Abirova**

ANNOTASIYA: Ushbu maqolada xalq uchun, millat uchun jon kuydirgn allomalarimiz, buyuk mutaffakkirlarimiz haqida ma'lumotlar berilgan. Jadidchilarmizning qilgan ishlari xalq uchun ko'rsatgan fidoiylklarini munosib o'rinda baholashga arziydi. Yangi ilk bor ochilgan, kutubxonalar yangi ochilgan maktablar ham, bizning jadidlar tomonidan ochilgan va xalqga ilm bilim berish yo'lida foydalanilgan.

KALIT SO'ZLAR: jadid maktablari, ayollar, yoshlar, kutubxonalar, maktab darsliklari, jadid namoyondalari.

O'zbek ayollarining ilm olishi oldingi asrlarda qiyin masalalardan biri bo'lgan hozirga kelib esa bunday qiyinchiliklar bartaraf qilingan. Qadimga nazar tashlar ekanmiz ko'pgina shaxslarning ilmsizligiga guvohi bo'lamiz. Zamon yangilana verib marifatparvar Jadid namoyondalari paydo bo'la boshladi. Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy kabi vatan kuychilari xalq o'ylovchilari chiqdi va ayollarni bolalarni o'qitishni targ'ib qildi. Hamza Hakimzoda Niyoziy ham o'zbek xalqini o'qishga da'vat etgan va kutubxonalar ochgan. Birinchi maktabni 1914-yilda Marg'ilonda ochdi va u 8 oyga bormay Andreyev ismidagi Skoblev maorif rahbari tomonida yopildi. Adib bilim berishdan to'xtamadi keyinchalik Ho'qandga kelib bu yerda ham yo'qsillar uchun pulsiz maktab ochadi. Odamlar 1 oygina yordam berishdi u ham uyezd nachanligi tomonidan yopildi. Bizning yurtimizda yangilik bo'lishiga qo'yib bermas edi odamlar o'z fikriga ega emas edi. O'qimaganligi tajribasizligi sababli shunday bo'lgan edi. Hamza Hakimzoda Niyoziy ijodida to'xtab qolmadi bolalar darsligi uchun "Yengil adabiyo", "Qiroat kitob" nomli darsliklar yozdi. 1915 yilda Marg'ilonda "G'ayrat" kutubxonasini ochdi. Yurtimizni ilmlilar bilimlilar egalashini yurtimiz e'tiborli yurtlardan bo'lishini juda xohlaganligi uchun ham xalqi uchun millati uchun bepul yo'qsil maktablar va ular uchun foydalandigan kitoblar yaratdi. Haqiqiy millatparvar shaxslarimiz orqasidan hozirda kundagi yoshlarga bir nazar tashlasak o'sish rivojlamish ilgari surilmoqda. Jadidchilik harakati vatanparvarlikni faqatgina geografik makonga bo'lgan muhabbat deb tushunmadi. U vatan tuyg'usini millat taqdiri, uning madaniyati, tili, tarixi va kelajagi bilan

chambarchas bog'liq holda talqin etdi. Vatanparvarlik – bu o'z Vatanining ozodligi, mustaqilligi, taraqqiyoti uchun kurashish, uning farovonligi yo'lida jon fido qilishga tayyor turish edi. Millatparvarlik esa jadidlar nazdida tor doiradagi shovinizm emas, balki o'z millatining qadr-qimmatini anglash, uning tili, urf-odatlarini, ma'naviyati va madaniyatini asrab-avaylash, rivojlantirish hamda jahon xalqlari orasida munosib o'rin egallashga intilish edi. Jadidlar uchun millatparvarlik – o'zlikni anglash, jaholat va qoloqlikdan qutulib, ma'rifat sari intilish demak edi. Bu ikki g'oya bir-birini to'ldirib, jadid adabiyotida mustahkam tamal toshini yaratdi.

Abdulla Qodiriy ham o'z ijodidan o'rganayotgan bilimlaridan yozgan kitoblari bilan boshqalardan ajralib turadi. Jadid ilmining chiroqlari bu bizning bobokalonlarimiz tarixchilarimiz va biz ularni izdoshlari bo'lsak ajab emas. Bizning buyuk so'zlar bilan tar'iflab bo'maydigan bobokalonlarimiz bor. Biz ular xohlagandek izdoshlar bo'lishimiz kerak. Yurt uchun jonni fido qilgan buyuk shaxslarimiz. Jadidparvar yurtdoshlarmiz millatimiz dinimiz uchun bor budini berib och nahor qolgan paytlari ham yurti uchun kurashgan bizning ajdodlarmiz. O'zbek xalqining bilimlilari ham bilimsizlari ham bir talaygina hozirgi kunga kelib bilimsizlarning joyini bilimlilar egalab olmoqda chunki bilimlilar safi toboro ko'payib bormoqda. Yurtboshimiz yoshlarimiz o'qishliklari uchun bir nechta qulayliklar yaratib bermoqda. Yurtboshimiz bergan imkoniyatlardan biz, albatta, unimli foydalanmog'imiz kerak bo'ladi. Biz jadid ilmidagi bobolarimizdan biz ham namuna olib yuksalmog'imiz yurt uchun jon kuydirmog'imiz kerak bo'ladi. Biz ayollar uchun ham bir nechta imkoniyatlar kundan kunga ko'payib bormoqda hozirgi kunga kelib "Gender tengligi" ham ishga tushirilmoqda ayollarmiz ham erkaklar kabi teng huquqli bo'ldi.

Jadidlarning ayollarni yangi, zamonaviy ta'limga targ'ib qilish harakatlari ba'zilar tomonidan ma'qullanmagan. Ayrimlar ularni ayollarning paranji-chachvonini yechib tashlash, savodxon bo'lib, dindan uzoqlashishda ayblagan. Bu harakatlar diniy konservativ guruhlarining noroziligiga uchragan. 1907-yili yana bir turkistonlik ayol Nojiyaxon Duma musulmon a'zolariga maktub yozadi. U musulmon ayollarining erkaklar tomonidan to'rt devor orasida qamab qo'yilganidan shikoyat qiladi. Istanbul va Misrda xotin-qizlar tijorat bilan shug'ullanish, hajga borish huquqiga ega ekani haqida yozib, Dumaning musulmon a'zolaridan turkistonlik ayollarga ham bu huquqlar berilishi lozimligini talab qiladi. Jadidlar Turkiston xalqini sovet hukumatiga bo'yin egish xavfidan qutqarishning birdan-bir to'g'ri yo'li avval tarbiya va ma'rifat, so'ng islohot ekanligini juda yaxshi anglab yetdilar va quyidagi me'zonlarni yaratdilar:

1. Agar mumtoz adabiyotda dunyoviylikka nisbatan diniy jihat ustunroq bo'lgan bo'lsa, jadid adabiyotida bularning o'rtasida o'zaro tenglik ya'ni diniy-dunyoviylik qaror topdi.

2. Jadid adabiyoti mumtoz adabiyotdan farqli ravishda g'arb adabiyotidagi esse, drama, roman, hikoya va barmoq vazniga asoslangan she'riyat kabi badiiy janrlar ko'rinishiga ega bo'ldi. Proza va publitsistika paydo bo'la boshladi.

3. Jadid adabiyoti bevosita ijtimoiy-siyosiy va ma'rifatchilik mafkurasi, milliy-ozodlik xususiyatiga ega edi. Unda mazlum xalq hayoti bevosita o'z ifodasini topdi. Badiiy asarlar jonli xalq tilida yozildi. Ijtimoiy faollik va milliy ruh bu yangi adabiyotning eng muhim xususiyatiga aylandi.

4. Jadid adabiyotidagi badiiy-lirik qahramon qiyofasi mumtoz adabiyotdagi qahramon qiyofasidan tubdan o'zgardi. U endi an'anaviy oshiq yohud ma'rifatparvargina emas, balki mavjud mustamlaka jamiyati tartib-qoidolari hamda milliy tengsizlik bilan kelisha olmaydigan, shu bilan birga yangicha o'z ijtimoiy-siyosiy va axloqiy qarashiga ega bo'lgan shaxsdir. Jadidchilik harakati jadid adabiyotining asoschilari bo'lgan yirik iste'dod egalari-jadid adibi, shoiri, dramaturgi va san'ati arboblari ham tarbiyaladi. Bunga yaqqol misol qilib Abdulhamid Cho'lponni (1897-1938) keltirishimiz mumkin. Jadid adabiyotida she'riyat ya'ni jadid she'riyati eng sermahsul va ommabop janr sifatida alohida ko'zga tashlandi. Jadid g'oyalarining xalqqa yoyilishi, singishi va amaliy natijalar berishida she'riyat san'atining ta'sir ko'rsatishi kuchli bo'ldi. Shuning uchun ham jadid adiblarning aksariyat yirik nomayondalari o'z ijodiy-amaliy faoliyatini she'r yozish va drama bilan bog'liq holda olib bordi. Behbudiyning "Padarkush" asarida ham o'qimagan bola to'g'risida gap ketadi va oxirida ilmsizligi orqasidan o'z otasini o'ldirishgacha boradi. Ota qotili deya ayta olamiz. Hozirgi kunda ham o'z otasiga qo'l ko'tarayotgan insonlarni o'z yurtimizda ham uchratamiz. Odiygina pil boylik mansab uchun qilmagan ishi amali qolmagan farzandlar ham menimcha ilmsizligi evaziga bo'lsa kerak. "Asirga tatigulik kun" asarida bunday obrazni uchratishimiz mumkin ya'ni o'z otasini unutgan xattoki, otasini o'lganini ham bilmagan Sobitjon misolida hozirgi ilmsizlikning yaqqol misolini ko'ra olamiz.

Fikrimizning xulosasidan shuni anglashimiz kerakki, bizning yurtimizda ham jadid yangilik kirituvchi insonlar juda ko'p bo'lgan hozirda bu ilmi insonlarni ko'paytirishimiz kerak bo'ladi. Bizning yurtida ham olim bilimli insonlarni ko'proq chiqishi uchun harkat qilishimiz yurtimiz uchun harakatdan to'xtamasligimiz kerak bo'ladi. Yoshlarni ilm olishga qiziqtirishimiz bilimli bolalarni tarbiyalashimiz bizning qo'limizda biz bolalarimizni o'zimiz ilmi bilimli qilasak qilsak ajab emas. Jadid adabiyotida vatanparvarlik va millatparvarlik g'oyalari bir-birini to'ldirib, millatni uyg'otish, ma'rifatga chorlash va istiqbolga erishishning asosiy dasturi bo'lib xizmat qildi. Jadid adiblari nafaqat o'zbek adabiyotiga yangi janr va shakllarni olib kirishdi, balki o'zlarining chuqur falsafiy, ijtimoiy-siyosiy g'oyalari bilan butun bir davrning ma'naviy yo'nalishini belgilab berdilar. Ularning asarlarida aks etgan vatan muhabbati, milliy g'urur, ilm-ma'rifatga chanqoqlik, ozodlikka intilish bugungi kunda ham o'z

ahamiyatini yo'qotmagan, aksincha, yosh avlodni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda. Jadidlarning bu ulug'vor g'oyalari bugungi mustaqil O'zbekistonning rivojlanishi va taraqqiyoti yo'lida ham ilhom manbai bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nazarov. O'zbek falsafasi. –T., 2003.
2. Tulak. XX asr o'zbek adabiyoti. –Andijon, 1993.
3. Qosimov. Milliy uyg'onish: Jasorat, ma'rifat, fidoiylilik. –T., Ma'naviyat, 2002.
4. Sh.G'affarov. Istibdod davrida Turkistondagi ta'lim tizimi. – Samarqand.: SamDU nashr, 200.
5. Tog'aev. va boshqalar. Darsda jadidchilik va uning mohiyatini o'rganish.// "Xalq ta'limi", 1993, 1-son.
6. Guli Mahmudova. Jadidizm va Turkistonda axloqiy-estetik fikr taraqqiyoti. –T., 2006.
7. O'zbekiston tarixi: Yangi nigoh. Jadidlar harakatidan milliy mustaqillikka qadar. Davra suhbat materiallari. 1998 yil 9 oktabr. –T.: Eldinur nashriyot uyi, 1998.
8. Mardonova Lobar Umaraliyevna, & Axmedova Dilbar Abdulkarimovna. (2023). Ta'lim jarayonida o'z - o'zini boshqarish va o'z ustida ishlash, shaxsiy pedagogik tajriba to'plash tizimi. Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan, 1(2),
9. "JADID ADABIYOTI "Odinaxon Tojiboyeva Xasanovna Andijon viloyati Paxtaobod tuman 2-son kasb- hunar maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
10. Jadid Adabiyotida Vatanparvarlik va Millatparvarlik G'oyalari: Uyg'onish va Taraqqiyot Chorlovlari